XALQARO TAJRIBADA “OCHIQ BUDJET” AMALIYOTI VA UNI O‘ZBEKISTONDA QO‘LLASH ISTIQBOLLARI

Shodmonqulov Temurbek Ulug‘bek o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi
“Davlat moliyasi va xalqaro moliya” mutaxassisligi magistranti
ORCID: 0009-0003-0043-3148

Received: 19.09.2025
Revised: 20.09.2025
Accepted: 22.09.2025

Kalit so‘zlar:
ochiq budjet, shaffoflik, jamoatchilik ishtiroki, davlat moliyasi, xalqaro tajriba.

Key words:
open budget, transparency, public participation, public finance, international experience.

Ключевые слова:
открытый бюджет, прозрачность, участие общественности, государственные финансы, международный опыт.

Annotatsiya. Mazkur maqolada xalqaro tajribada “ochiq budjet” amaliyoti va uning afzalliklari tahlil qilingan. Shuningdek, O‘zbekistonda budjet jarayonida shaffoflik va jamoatchilik ishtirokini kengaytirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar o‘rganilgan. Xalqaro ilg‘or tajribalar asosida mamlakatda “ochiq budjet” mexanizmlarini samarali qo‘llash istiqbollari va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Abstract. This article analyzes the practice of “open budget” in international experience and its advantages. It also examines the reforms being implemented in Uzbekistan to increase transparency and public participation in the budget process. Based on international best practices, perspectives and recommendations for the effective application of “open budget” mechanisms in the country are presented.

Аннотация: В данной статье рассмотрена практика “открытого бюджета” в международном опыте и её преимущества. Также проанализированы проводимые в Узбекистане реформы по повышению прозрачности и расширению участия общественности в бюджетном процессе. На основе международного опыта предложены перспективы и рекомендации по эффективному применению механизмов “открытого бюджета” в стране.

So‘nggi yillarda jahon miqyosida davlat boshqaruvi tizimida shaffoflik, ochiqlik va hisobdorlik tamoyillari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, davlat budjeti jarayonining ochiqligi nafaqat moliyaviy barqarorlikni ta’minlash, balki aholining davlat boshqaruviga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash va korrupsiyaning oldini olishda ham muhim omil sifatida qaraladi. Shu bois, ko‘plab davlatlar xalqaro standartlar asosida budjet jarayonini jamoatchilik uchun

ochiq qilish, moliyaviy ma’lumotlarni oshkora taqdim etish va fuqarolarning faol ishtirokini rag‘batlantirishga alohida e’tibor qaratmoqda.

Xalqaro budjet hamkorligi (IBP) tomonidan ishlab chiqilgan Ochiq budjet indeksi (Open Budget Index – OBI) mamlakatlarning davlat moliyasidagi shaffoflik darajasini baholashning asosiy mezonlaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Ushbu indeks orqali mamlakatlar nafaqat ochiqlik darajasini aniqlaydi, balki qaysi yo‘nalishlarda islohotlarga ehtiyoj mavjudligini ham bilib olishadi. Masalan, Norvegiya, Shvetsiya, Janubiy Koreya va Braziliya kabi davlatlarda “ochiq budjet” amaliyoti muvaffaqiyatli joriy etilib, keng jamoatchilikning davlat mablag‘laridan foydalanish jarayonida faol ishtiroki ta’minlangan.

O‘zbekiston Respublikasida ham oxirgi yillarda budjet jarayonida ochiqlikni oshirish bo‘yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, “Ochiq budjet” portali ishga tushirilishi, “Fuqarolar budjeti” loyihasi doirasida aholining mahalliy budjet mablag‘larini taqsimlashda bevosita ishtirok etish imkoniyatining yaratilishi va Davlat budjeti loyihasining keng jamoatchilik muhokamasiga qo‘yilishi bunga yorqin misoldir.

Mazkur maqolada xalqaro tajribada “ochiq budjet” amaliyoti va uning samaralari tahlil qilinib, O‘zbekistonda ushbu tajribani qo‘llash istiqbollari hamda kelgusida amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan chora-tadbirlar yoritiladi.

Mavzuga oyd adabiyotlar sharhi. Budjetni tashkil etish jarayoni, uning shaffofligini ta’minlash va unda jamoatchilikning ishtirokini o‘rganish masalalari bo‘yicha ko‘plab mahalliy va xorijiy olimlar tadqiqot olib borgan. Demokratiya sharoitida budjet faoliyatining nazariy asoslarini tadqiq etish va amaliy tahlil qilish asosan chet ellik olimlar tomonidan amalga oshirilgan.

International Budget Partnership (IBP) tomonidan e’lon qilinadigan Open Budget Survey (2006 yildan beri) mamlakatlarning budjet jarayonidagi shaffoflik, ishtirok va nazorat darajasini baholashning asosiy xalqaro mezoniga aylangan [1]. Ushbu tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, budjet ma’lumotlarini keng jamoatchilik uchun ochiq taqdim etish davlat boshqaruvida ishonchni oshirishga xizmat qiladi. Schick (1998) va Allen & Tommasi (2001) tadqiqotlarida davlat budjetining ochiqligi samarali fiskal siyosat yuritishning muhim sharti sifatida ta’kidlangan [2]. Ularning fikricha, moliyaviy intizom va shaffoflik davlat resurslarini oqilona boshqarishda hal qiluvchi omildir. Alt & Lassen (2006) esa empirik tadqiqotlarida budjet jarayonida shaffoflik darajasi yuqori bo‘lgan mamlakatlarda davlat qarzi pastroq bo‘lishi va fiskal barqarorlik yaxshiroq ta’minlanishini ko‘rsatib o‘tgan [3].

OECD (2015) hisobotida davlat moliyasida ochiqlikni kengaytirish fuqarolarni qaror qabul qilish jarayonlariga jalb etish va ijtimoiy ishonchni mustahkamlashning eng samarali vositalaridan biri sifatida e’tirof etilgan [4].

Rivojlangan davlatlarda “ochiq budjet” amaliyoti keng joriy etilgan. Masalan:

Braziliyada 1980-yillardan boshlab “ishtirokchi budjet” modeli qo‘llanilib, aholiga mahalliy budjet mablag‘larini taqsimlashda bevosita qatnashish imkoniyati berilgan (Wampler, 2007) [5].

Janubiy Koreyada elektron hukumat va ochiq ma’lumotlar platformalari orqali budjet xarajatlari real vaqt rejimida jamoatchilikka taqdim etiladi [6].

AQShda “USAspending.gov” portali orqali federal darajadagi budjet va xarajatlar shaffof tarzda yoritiladi [7].

O‘zbekiston Respublikasida ham oxirgi yillarda budjet jarayonida ochiqlikni oshirish bo‘yicha qator ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilgan.

Mahalliy iqtisodchi-olimlar, jumladan Timasheva I.V., Sabatovich M.V. va Pazdnikova N.P., mintaqaning munitsipal moliyasini boshqarishda fuqarolarning ishtiroki alohida o‘rin egallaydi deb yozganlar [8].

Fedosov V.A. budjetlarning ochiqligi va budjet jarayonida jamoatchilik ishtirokini oshirish davlat daromadini oshirish yo‘llarini kengaytirishiga olib kelishi mumkin deb hisoblagan [9].

O‘zbekiston Moliya vazirligi va Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi (CERR) tomonidan chop etilgan tahliliy ma’ruzalar “ochiq budjet” amaliyotining joriy etilishi va istiqbollari haqida muhim ma’lumot beradi [10].

2019-yildan boshlab “Ochiq budjet portali” va “Fuqarolar budjeti” loyihasi orqali O‘zbekistonda ochiqlikning institutsional asoslari shakllanmoqda [11].

Sharhlangan adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, xalqaro miqyosda “ochiq budjet” shaffof boshqaruvning ajralmas qismi sifatida qaraladi. Xalqaro va mahalliy tadqiqotlar O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar bilan uyg‘unlashib, budjet jarayonida fuqarolarning ishtirokini kengaytirish va davlatning hisobdorligini ta’minlash uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Tadqiqot metodologiyasi. budjet jarayonining shaffofligini ta’minlashning zamonaviy amaliyotini tahlil qilish mavjud muammolarni aniqlash uchun jamoatchilikni jalb qilish, budjet jarayonining nazariy va qonunchilik-me’yoriy asoslarini tadqiq etishdan iborat.

Tahlil va natijalar. Xalqaro amaliyot shuni ko‘rsatadiki, “ochiq budjet” shaffof boshqaruv va jamoatchilik ishtirokini ta’minlashning eng samarali vositasi hisoblanadi. Ochiq budjet amaliyoti nafaqat davlat moliyaviy resurslarini samarali boshqarishga, balki aholining qaror qabul qilish jarayonlariga jalb etilishiga, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish va moliyaviy intizomni mustahkamlashga xizmat qiladi.

1-jadval

2023-yilgi Open Budget Survey (OBS) asosida davlatlar reytingi

Mamlakat	OBI balli (0–100)	Reyting o‘rni	Izohlar
Gruziya	89	1	Jahon bo‘yicha yetakchi; shaffoflik va ishtirokni yuqori baholangan.
Janubiy Afrika	83	4	Kuchli budjet nazorati va ishtirok mexanizmlari mavjud.
Meksika	80	6	Ochiq budjet tizimi va fuqarolar ishtirokini rivojlantirishda ilg‘or.
Braziliya	77	7	Mahalliy budjetlarda fuqarolar ishtiroki yuqori; ishtirokchi budjet modeli mavjud.
Benin	75	9	Budjet shaffofligi va ishtirokni oshirishda sezilarli yutuqlar.

Manba: International Budget Partnership, Open Budget Survey 2023

Braziliyada 1980-yillardan boshlab joriy etilgan “ishtirokchi budjet” modeli aholiga mahalliy budjet mablag‘larini taqsimlashda bevosita qatnashish imkoniyatini yaratgan. Ushbu model orqali fuqarolar o‘z hududlaridagi infratuzilma loyihalarini belgilash va resurslarni taqsimlash jarayonida bevosita ishtirok etadi. Shu bilan birga, ushbu amaliyot mahalliy hokimiyatning hisobdorligini oshiradi va fuqarolar bilan o‘zaro ishonchni mustahkamlaydi [5].

Janubiy Koreyada elektron hukumat va ochiq ma’lumotlar platformalari orqali budjet xarajatlari real vaqt rejimida jamoatchilikka taqdim etiladi. Fuqarolar va ekspertlar budjet ma’lumotlarini onlayn tarzda kuzatishi, tahlil qilishi va takliflar berishi mumkin. Bu mexanizm shaffoflikni oshiradi va davlat boshqaruvida jamoatchilik ishtirokini kuchaytiradi [6].

AQShda esa federal darajadagi budjet xarajatlari “USAspending.gov” portali orqali shaffof yoritiladi. Portal orqali fuqarolar davlat xarajatlarini to‘liq ko‘rib chiqishi, moliyaviy resurslarning qanday ishlatilayotganini kuzatishi va tegishli tahlillarni amalga oshirishi mumkin. Shu tarzda, shaffoflik davlatning hisobdorligini oshiradi va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlaydi [7].

Xalqaro tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, shaffoflik darajasi yuqori bo‘lgan mamlakatlarda davlat qarzi pastroq bo‘ladi va fuqarolar ishtiroki kuchliroq bo‘ladi [1]; [4]; [3]. Shu bilan birga, ochiq budjet amaliyoti fuqarolarning moliyaviy madaniyatini oshirishga, davlat resurslaridan samarali foydalanishni ta’minlashga va ijtimoiy ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi.

2-jadval

Global o‘rtacha ko‘rsatkichlar (2023-yil)

Ko‘rsatkich	Ball (0–100)	Izohlar
Shaffoflik (Transparency)	45	Ko‘pgina mamlakatlarda budjet ma’lumotlari cheklangan yoki mavjud emas.
Jamoatchilik ishtiroki	15	Fuqarolar budjet jarayoniga kam jalb qilingan.
Parlament nazorati	45	Parlamentlarning budjetni nazorat qilish imkoniyatlari cheklangan.
Audit nazorati	62	Milliy audit idoralari faoliyatida o‘rtacha daraja.

Manba: International Budget Partnership, Open Budget Survey 2023

O‘zbekiston Respublikasida budjet jarayonining shaffofligini oshirish va jamoatchilik ishtirokini kengaytirish sohasida oxirgi yillarda sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonlar asosan quyidagi yo‘nalishlarda rivojlanmoqda:

1. “Ochiq budjet” portal - 2019-yildan ishga tushirilgan portal orqali budjet ma’lumotlari keng jamoatchilik uchun ochiq taqdim etiladi. Portal davlat daromadlari va xarajatlari, moliyaviy hisobotlar, investitsiya loyihalari va boshqa moliyaviy ko‘rsatkichlar bo‘yicha to‘liq ma’lumot beradi. Shu bilan birga, portal orqali fuqarolar va ekspertlar budjet jarayonini kuzatish, takliflar berish va mavjud resurslar taqsimotini tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi [11].

2. “Fuqarolar budjeti” loyihasi - Mahalliy darajada joriy etilgan ushbu loyiha aholiga o‘z hududlaridagi budjet mablag‘larini taqsimlashda bevosita ishtirok etish imkoniyatini yaratadi. Fuqarolar o‘z hududlarida infratuzilma loyihalarini belgilash, mablag‘ taqsimotini muhokama qilish va ustuvor loyihalarni tanlashda faol qatnashadi. Shu tarzda, mahalliy hokimiyatning hisobdorligi oshadi va jamoatchilik bilan samarali aloqalar o‘rnatiladi [8].

3. Budjet loyihalarini jamoatchilik muhokamasiga qo‘yish - Davlat budjeti loyihalari yillik reja asosida keng jamoatchilik muhokamasiga qo‘yiladi. Ushbu mexanizm orqali fuqarolar, ekspertlar va nodavlat tashkilotlar budjetning samaradorligi, adolatliligi va ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha takliflar berishi mumkin. Shu yo‘l bilan budjet jarayonida shaffoflik va hisobdorlikning amaliy mexanizmlari kuchaytiriladi [9].

Tahlil: O‘zbekiston amaliyoti xalqaro standartlar bilan solishtirilganda, shaffoflik va jamoatchilik ishtirokini ta’minlash bo‘yicha sezilarli yutuqlarga erishgan. Shu bilan birga, fuqarolarning faol ishtiroki darajasi va elektron platformalardan keng foydalanish imkoniyatlari hali to‘liq amalga oshirilmagan. Raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va fuqarolarni budjet jarayoniga jalb qilish orqali shaffoflikni yanada oshirish mumkin.

Natija:

- Budjet jarayonining shaffofligini oshirish va jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish orqali davlat mablag‘laridan samarali foydalanish ta’minlanadi.
- Fuqarolarning faol ishtiroki davlat boshqaruviga ishonchni oshiradi va korrupsiyaning oldini olishga yordam beradi.
- O‘zbekiston tajribasi xalqaro ilg‘or amaliyotlar bilan uyg‘unlashib, mamlakatda “ochiq budjet” mexanizmini yanada rivojlantirish imkoniyatlarini yaratadi.

3-jadval

O‘zbekistonning 2023-yildagi budjet shaffofligi va ishtiroki ko‘rsatkichlari

Yo‘nalish	Ko‘rsatkichlar
“Ochiq budjet” portali	49,464 ta tashabbus kelib tushgan; 33,489 tasi tasdiqlangan; 15,975 tasi moliyalashtirilgan
“Fuqarolar budjeti” loyihasi	44,404 ta loyiha kelib tushgan; 27,184 tasi 1-mavsumda; 46,821 tasi 2-mavsumda
Davlat budjeti daromadlari	konsolidatsiyalashgan budjet daromadlari 321,0 trln so‘mni tashkil etdi; 2022-yilda mazkur ko‘rsatkich 286,5 trln so‘mni tashkil etgandi.

Manba: Openbudget.uz (2019–2025), Iqtisodiyot va moliya vazirligi, 2023.

Yuqoridagi 3-jadvalda “Ochiq budjet” portali – Fuqarolar va ekspertlar budjet jarayonini kuzatish, takliflar berish va resurs taqsimotini tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. “Fuqarolar budjeti” loyihasi – Aholiga mahalliy budjet mablag‘larini taqsimlashda bevosita ishtirok etish imkoniyati yaratadi. Davlat budjeti daromadlari – 2023-yilda konsolidatsiyalashgan daromadlar 321,0 trln so‘mni tashkil etdi, bu 2022-yilga nisbatan sezilarli o‘sishni ko‘rsatadi.

4-jadval

2024-yilgi O‘zbekiston budjeti: asosiy ko‘rsatkichlar

Ko‘rsatkichlar	Ma’lumotlar
Davlat budjeti daromadlari	193,6 trln so‘m
Davlat budjeti xarajatlari	219,3 trln so‘m
Budjet defitsiti	36,4 trln so‘m

“Tashabbusli budjet”ga ajratilgan mablag‘lar	2 271,7 mlrd so‘m
“Tashabbusli budjet” loyihalariga ovoz bergan hududlar	597 ta mahalla fukorolar yig‘ini
“Ochiq budjet” portalida faoliyat ko‘rsatayotgan foydalanuvchilar	49 464 ta tashabbus kiritilgan; 33 489 tasi tasdiqlangan; 15 975 tasi moliyalashtirilgan

Manba: Iqtisodiyot va moliya vazirligi, 2024.

Yuqoridagi 4-jadvalda Davlat budjeti daromadlari va xarajatlari: 2024-yilda davlat budjetiga jami 193,6 trln so‘m daromad tushgan bo‘lsa, xarajatlar 219,3 trln so‘mni tashkil etdi. Bu o‘tgan yilga nisbatan 19% daromad va 21,6% xarajatlarning o‘sishini ko‘rsatadi. Budjet defitsiti: Davlat budjeti defitsiti 36,4 trln so‘mni tashkil etdi. Bu 2023-yilning shu davriga nisbatan 1,05 trln so‘mga kamroqdir. “Tashabbusli budjet”ga ajratilgan mablag‘lar: 2024-yilda “Tashabbusli budjet” dasturiga jami 2 271,7 mlrd so‘m ajratilgan bo‘lib, bu mablag‘lar mahalliy infratuzilma loyihalariga yo‘naltirilgan. “Tashabbusli budjet” loyihalariga ovoz bergan hududlar: 2024-yilda 597 ta mahalla fukorolar yig‘ini “Tashabbusli budjet” loyihalariga ovoz berdi. Bu mahalliy jamoatchilikning budjet jarayoniga faol ishtirokini ko‘rsatadi. “Ochiq budjet” portalida faoliyat ko‘rsatayotgan foydalanuvchilar: “Ochiq budjet” portalida 49 464 ta tashabbus kiritilgan bo‘lib, shundan 33 489 tasi tasdiqlangan va 15 975 tasi moliyalashtirilgan. Bu fuqarolarning budjet jarayoniga faol ishtirokini aks ettiradi.

Xalqaro va mahalliy tajribalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda “ochiq budjet” mexanizmini kengaytirish va takomillashtirish uchun bir qator istiqbolli yo‘nalishlar mavjud.

1. Elektron platformalarni rivojlantirish - Raqamli texnologiyalar va onlayn platformalar orqali budjet ma’lumotlarini jamoatchilikka tezkor va qulay taqdim etish muhim ahamiyatga ega. Shu yo‘l bilan fuqarolar budjet xarajatlarini real vaqt rejimida kuzatishi, tahlil qilishi va takliflar berishi mumkin. Elektron platformalarni mobil ilovalar bilan integratsiyalash orqali ishtirokni yanada kengaytirish mumkin [6].

2. Fuqarolar ishtirokini kuchaytirish - “Fuqarolar budjeti” kabi loyihalarni kengaytirish va hududiy darajada mahalliy aholini qaror qabul qilish jarayonlariga jalb qilish tavsiya etiladi. Buning uchun jamoatchilikni rag‘batlantiruvchi motivatsion mexanizmlar, xususan, ovoz berish, jamoatchilik muhokamalari va loyihalar monitoringi tizimlari joriy qilinishi lozim [5].

3. Ochiqlik va shaffoflikni oshirish - Budjet jarayonidagi barcha hujjatlar, xarajatlar va moliyaviy hisobotlar keng jamoatchilik uchun tushunarli shaklda taqdim

etilishi kerak. Bu, nafaqat davlatning hisobdorligini oshiradi, balki korrupsiyaning oldini olishga va resurslardan samarali foydalanishga xizmat qiladi [9]; [1].

4. Xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashuv - O‘zbekiston tajribasini xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirish, masalan, IBP va OECD tavsiyalari asosida Ochiq Budjet Indeksida reytingni oshirish imkonini beradi. Shu bilan mamlakat moliya tizimi xalqaro hamjamiyat tomonidan yuqori baholanishi mumkin.

5. Ta’lim va malaka oshirish - Jamoatchilik, xususan, yoshlar va mutaxassislar o‘rtasida budjet jarayonini tushunish va ishtirok etish ko‘nikmalarini oshirish bo‘yicha treninglar, seminarlar va elektron kurslar tashkil etilishi tavsiya etiladi. Bu fuqarolarni faol ishtirokchi qilishga xizmat qiladi.

Ushbu tavsiyalarni amalga oshirish orqali O‘zbekiston Respublikasida budjet jarayonini shaffof qilish, jamoatchilik ishtirokini kengaytirish va moliyaviy resurslardan samarali foydalanishning samarali mexanizmlari yaratiladi. Shu bilan birga, davlat boshqaruvida ishonch oshadi, korrupsiyaga qarshi kurash kuchayadi va iqtisodiy barqarorlik mustahkamlanadi.

Xulosa va takliflar. Shaffoflik va jamoatchilik ishtiroki muhimligi xalqaro tajribalar va O‘zbekiston amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, budjet jarayonining shaffofligi va fuqarolarning faol ishtiroki davlat resurslarini samarali boshqarish, korrupsiyani kamaytirish va ijtimoiy ishonchni oshirishning asosiy omilidir. Braziliya, Janubiy Koreya va AQSh kabi davlatlarning ochiq budjet mexanizmlari fuqarolarning budjet jarayoniga faol jalb qilinishini ta’minlaydi, O‘zbekistonning “Ochiq budjet” portali va “Fuqarolar budjeti” loyihasi esa shu mexanizmlarga o‘xshash amaliy imkoniyatlarni yaratgan. 2019–2024-yillarda O‘zbekistonda budjet jarayonida shaffoflik va jamoatchilik ishtiroki bo‘yicha sezilarli yutuqlar qayd etilgan, biroq elektron platformalardan foydalanish va fuqarolarning faol ishtiroki darajasi hali to‘liq amalga oshmagan.

Takliflar quyidagilardan iborat: Elektron platformalarni rivojlantirish orqali budjet ma’lumotlarini tezkor va qulay tarzda taqdim etish, fuqarolarga real vaqt rejimida kuzatish, tahlil va taklif berish imkoniyatini kengaytirish zarur. Fuqarolar ishtirokini kuchaytirish maqsadida “Fuqarolar budjeti” kabi loyihalarni kengaytirish, mahalliy darajada jamoatchilik muhokamasini faol amalga oshirish va qaror qabul qilish jarayonlariga fuqarolarni jalb etish lozim. Shaffoflikni oshirish uchun budjet hujjatlari, xarajatlar va moliyaviy hisobotlarni keng jamoatchilik uchun tushunarli shaklda taqdim etish orqali davlatning hisobdorligini oshirish va korrupsiyaga qarshi kurashish muhimdir. Xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashuvni ta’minlash, jumladan IBP va OECD tavsiyalari asosida “Ochiq Budjet Indeksi”ga moslashtirish orqali moliya tizimini xalqaro miqyosda yuqori baholanishi mumkin. Shuningdek, jamoatchilik, xususan yoshlar va mutaxassislar o‘rtasida budjet jarayonini tushunish va ishtirok etish ko‘nikmalarini oshirish maqsadida treninglar, seminarlar va elektron kurslar tashkil

etish tavsiya etiladi. Ushbu chora-tadbirlar orqali O‘zbekistonda budjet jarayonida shaffoflikni oshirish, jamoatchilik ishtirokini kengaytirish, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash, korrupsiyani kamaytirish va demokratik boshqaruvni rivojlantirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. International Budget Partnership (IBP), 2006–2024. Open Budget Survey. https://www.internationalbudget.org/open-budget-survey
2. Schick A., 1998. A Contemporary Approach to Public Expenditure Management. Washington, DC: World Bank.
3. Alt J.E. and Lassen D.D., 2006. Transparency, Political Polarization, and Debt in OECD Countries. European Economic Review, 50(6), pp.1403–1439.
4. OECD, 2015. Open Government and Public Sector Transparency. Paris: OECD Publishing.
5. Wampler B., 2007. Participatory Budgeting in Brazil: Contestation, Cooperation, and Accountability. Pennsylvania State University Press.
6. Kim S., 2014. E-Government and Citizen Participation in South Korea. Government Information Quarterly, 31(4), pp.530–539.
7. USAspending.gov, 2024. Federal Spending Data. https://www.usaspending.gov
8. Timasheva, I.V., Sabatovich, M.V. and Pazdnikova, N.P., 2018. Municipal Finance and Citizen Participation. Moscow: Finance Academy Press.
9. Fedosov, V.A., 2017. Budget Transparency and Public Participation: Implications for Revenue Growth. St. Petersburg: Peter Publishing.
10. O‘zbekiston Moliya vazirligi & CERR, 2020. Ochiq budjet va uning istiqbollari bo‘yicha tahliliy ma’ruza. Tashkent: CERR.
11. Ochiq budjet portali, 2019–2025. Budjet ma’lumotlari va fuqarolar ishtiroki. https://budget.gov.uz